

ZAMONAVIY FRANSUZ TILIDA EVFEMIZMLARNING QO'LLANILISHI

**Ro'zmetova Dilnora Shavkat qizi**

O'zDJTU 2-kurs magistratura bosqichi talabasi

Lingvistika: fransuz tili yo'nalishi

E-mail: [drozmetova19@gmail.com](mailto:drozmetova19@gmail.com)

Tel: +998 93 090 40 92

Ilmiy rahbar: **Raximova Gulsanam Ashirbekovna,**

Fransuz tili nazariy fanlar kafedrasini mudiri,

filologiya fanlari doktori (PhD), dotsent

Tel.: +998 95 044 78 08.

El. manzili : [miss\\_guli777@mail.ru](mailto:miss_guli777@mail.ru), ORCID: 0000-0003-2006-9702

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada evfemizmlarning gapda qo'llanilishi va uning ma'no bo'yoqdorligi tahlil qilindi. Har bir tilda ifoda mazmuniga ko'ra salbiy bo'yoqdor so'zlar bor. Har bir millatning ona tilida muloyim, xushmuomala jumlar bilan bir qatorda qo'pol, yoqimsiz birikmalar ham mavjud bo'lishi tabiiy lingvistik jarayon sifatida qaraladi. Evfemizmning paydo bo'lishi insoniyat tafakkuri va axloqiy qadriyatlar rivoji bilan bog'liq. U nafaqat til hodisasi, balki insonning nutqiy vaziyatni qaysidir ma'noda o'zgartirishga moyilligi sifatida ham namoyon bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** Evfemizmlar, leksikologiya, lingvistik terminlar, til, lisoniy birliklar, ijobiy bo'yoqdorlik, ma'daniyat.

THE USE OF EUPHEMISMS IN MODERN FRENCH

Ro'zmetova Dilnora Shavkat qizi,

UzSWLU, 2th Master student

E-mail: [drozmetova19@gmail.com](mailto:drozmetova19@gmail.com)

Tel: +998 93 090 40 92

Scientific advisor: Rakhimova Gulsanam Ashirbekovna,

Doctor of Philosophy (PhD), Docent, Head of Theoretical sciences of French Department,

Uzbekistan State University of World Languages.

Mobile: +998 95 044 78 08. Mail: [miss\\_guli777@mail.ru](mailto:miss_guli777@mail.ru)

ORCID: 0000-0003-2006-9702

**Abstract.** In this article, the use of euphemisms in sentences and in their meaning coloring were analyzed. Every language has negative connotations. It is considered a natural linguistic process that in the mother tongue of every nation there are polite and polite sentences as well as rude and unpleasant combinations. The emergence of euphemism is related to the development of human thinking and moral values. It is manifested not only as a linguistic phenomenon, but also as a human tendency to change the speech situation in some sense.

**Key words:** Euphemisms, lexicology, linguistic terms, language, linguistic units, positive coloring, culture.

Insoniyatni rivojida til, bilim va tafakkurning o'rni katta. Til- insonlar o'rtasidagi aloqa vositasi hisoblanadi. So'zni to'g'ri qo'llab gapira olish-gapimizni mazmunli, ma'noli va ta'sirchan qiladi. Inson bir jumla shirin so'zi orqali bemor odamni shifo topishiga sababchi bo'lsa, yomon gapi orqali sog'lom odamni kasal qilishi mumkin.

Hozirgi o'zbek adabiy tili fanida leksikologiya bo'limini o'tishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish masalasi tadqiq qilinib, unga evfemizm va disfemizm modulini kiritish taklif etilgan. Fransuz tili lisoniy imkoniyatlari nutqiy voqelanishining o'ziga xos ko'rinishi bo'lgan evfemizm va disfemizmlarda til va ma'naviyat, til va ruh mushtarakligi yaqqol namoyon bo'ladi. Shuning uchun milliy ma'naviyat muammosi globallashtirgan bugungi kunda milliy mentalitetni ifodalaydigan evfemik va disfemik vositalarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Evfemizmning paydo bo'lishi insoniyat tafakkuri va axloqiy qadriyatlar rivoji bilan bog'liq. U nafaqat til hodisasi, balki insonning nutqiy vaziyatni qaysidir ma'noda o'zgartirishga moyilligi sifatida ham namoyon bo'ladi. Maqbul so'z qo'llana turib, so'zlovchi tomonidan man etilgan (tabu) birliklar qo'llanishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nosoz muhit yumshatiladi. Man etilgan so'zlar esa insoniyat bilan tengqur deyilsa, mubolag'a bo'lmaydi. Evfemizm grek tilidan olingan bo'lib, ko'pchilik mualliflar fikriga ko'ra, so'z va iboralarni chiroyli shaklda ifoda etish, ma'no mazmuniga ko'ra xalqning ma'daniyatiga mos ravishda ifodalash.

A.Hojiyevning 2002 yilda qayta nashr qilingan "Lingvistik terminlar izohli lug'ati"da evfemizmga quyidagicha izoh beriladi: "Evfemizm (grek. euphemismos; eu — yaxshi, phemi — gapiraman) narsa- hodisaning ancha yumshoq formasidagi ifodasi; qo'pol, beadab so'z, ibora va tabu o'rnida qo'pol bo'lmagan, botmaydigan so'z, iborani qo'llash. Masalan, ikkiqat so'zi o'rnida homilador, og'ir oyoq; o'ldi o'rniga olamdan o'tdi, vafot etdi, ko'z yumdi; erga berdi o'rniga turmushga uzatdi; aytdi o'rniga-hikoya qildi, so'zlab berdi kabi birikmalarni chiroyli ifodalashga evfemizmlar deyiladi. XIX asrga kelib o'zgacha madaniy hayot tarzi shakllanadi, erkaklar ishlab chiqarish bilan band bo'lishlari, ayollar esa o'zlarini turmush o'rtoqlari va oilasiga baxsh etishlari lozim bo'ladi. Axloqiy va rasmiy tsenzura kuchayib, noziklik, nutqiy madaniyat yanada rivoj topa boshlaydi. Shekspir asarlarida uchraydigan "odobli oilalarda qo'llanmaydigan va ovoz chiqarib o'qish mumkin bo'lmagan" ifodalarni qayta tahrir qilgan Tomas Bodler ayni davrlarda katta shuhrat qozonadi. Evfemizmlar- salbiy bo'yoqlarni yumshatuvchi vosita hisoblanadi. Evfemizmlarni deyarli hamma sohada o'z o'rniga ega desam mubolag'a bo'lmaydi. Masalan, savdo-sotiq, psixologiya, meditsina sohasi, media va ommaviy-axborot vositalari, notiqlik san'ati kabi ko'plab sohalarda evfemizmlarni o'rni katta. Kundalik hayotimizda onani-volida, jannatim, farishtam; otani-davlatim, qalqonim kabi ifodalash. Media va ommaviy-axborot vositalarida evfemizmlardan foydalanish ifodani ta'sirchan qiladi, ifodalanayotgan gaplarni ma'noli va go'zal ifodalaydi. Reklamada har bir so'z mahsulotni sotish uchun xizmat qiladi, shunday ekan, ular ustida badiiy, iqtisodiy tomondan yuksak bo'lgan so'zlar ishlatiladi. Psixologiya sohasida ham evfemizmni o'rni juda katta. Masalan, gapni chiroyli qo'llab insonni ruhiyatiga yaxshi ta'sir o'tkazish mumkin. Yana evfemizmga bir qancha misollarni aytish mumkin. Masalan: o'ldirdi so'zi o'rniga tinchitdi, daf qildi, yo'q qildi kabi iboralar ishlatiladi. Dami kesiladi (ovozi o'chadi), elkasi qichimasin ("tamagirlik qilmasin"), kavshining chakagi yirtildi ("ovora bo'ldi"), katta tollar kesilgan ("yaxshi davrlar o'tib ketgan"), suyaklari o'ltirgan ("qarib, munkayib qolgan") kabilar gap shaklidagi evfemik vositalardir. Og'ir tabiatlik iborasi "o'zini tuta bilgan", "sipo", "vazmin", "bosiq" kabi tushunchalarni ifodalaydi. Sabz yashil rang ma'nosidan tashqari, "g'o'r", "xom", "yangi", "yosh" ma'nolarini ham anglatadi. Murt (mo'ylov)ga nisbatan ishlatilgan sabz so'zi ko'chma ma'noda "o'sib, unib chiqa boshlamoq", "nish urmoq" tushunchalarini beradi. Aytdi o'rniga hikoya qildi, so'zlab berdi, bayon qildi kabi, tug'ildi o'rniga dunyo yuzini ko'rdi, dunyoga keldi, tug'di o'rniga ko'zi yoridi, dunyoga keltirdi kabi birikmalar ishlatiladi. Fransuz tilidayam so'zlar ko'p ma'nolidir, so'zlarni to'g'ri qo'llash ma'no

mazmunni kuchaytiradi. Evfemizmlar qaysidir asarni o'zining tiliga tarjima qilayotganda, tarjima qilinayotgan tilning ma'daniyatiga mos tarzagi so'zlardan foydalanishdir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Булаховский Л.А. Введение в языкознание. – М.: Букинист, 1954- С. 174. 2.
2. Islomov, Dilshod. "O'zbek tiliga maxsus fonetik va fonostilistik effekt beruvchi alliteratsiya tushunchasi va san'ati haqida." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 16.16 (2022).
3. Zokirova Nargiza. (2021). Interpretation of concepts of human dignity by heroes in Utkir Khoshimov's works. Middle European scientific bulletin.
4. X. Qodirova – O'zbek tilida evfemizm va disfemizm: uslubiy qo'llanma Toshkent: Bookmany print, 2022. – 118 b.